NOMOLIYAVIY HISOBOTNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI: O‘ZBEKISTON UCHUN STRATEGIK YONDASHUVLAR

Abduvaliyev Zafar Mahmudovich
TAQU, “Iqtisodiyot va ko‘chmas mulk” kafedrasi dotsenti
Axmadjonova Asalxon Akmaljon qizi
TAQU, 44-24 Io’ guruh talabasi
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20131834

Annotatsiya: Maqolada korporativ ijtimoiy mas’uliyat va nomoliyaviy hisobotni shakllantirishning nazariy va uslubiy masalalari tadqiq etilgan. Zamonaviy kompaniyalarning jamiyat oldidagi mas’uliyati, ularning nafaqat moliyaviy foyda, balki ijtimoiy va ekologik barqarorlikka intilishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda nomoliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, steykholdarlar bilan muloqot qilish mexanizmlari va O‘zbekiston sharoitida ushbu tizimni rivojlantirish istiqbollari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (KIM), nomoliyaviy hisobot, barqaror rivojlanish, steykholdar, shaffoflik, ekologik mas’uliyat, xalqaro standartlar, GRI.

Аннотация: В статье исследуются теоретические и методологические вопросы формирования корпоративной социальной ответственности и нефинансовой отчетности. Анализируется ответственность современных компаний перед обществом, их стремление не только к финансовой прибыли, но и к социальной и экологической устойчивости. В исследовании освещены международные стандарты нефинансовой отчетности, механизмы взаимодействия со стейкхолдерами и перспективы развития данной системы в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: Корпоративная социальная ответственность (КСО), нефинансовая отчетность, устойчивое развитие, стейкхолдеры, прозрачность, экологическая ответственность, международные стандарты, GRI.

Abstract: The article examines the theoretical and methodological issues of forming corporate social responsibility and non-financial reporting. It analyzes the responsibility of modern companies to society, and their pursuit of not only financial profit but also social and environmental sustainability. The study covers international standards for non-financial reporting, mechanisms for interacting with stakeholders, and prospects for developing this system in Uzbekistan.

Keywords: Corporate Social Responsibility (CSR), non-financial reporting, sustainable development, stakeholders, transparency, environmental responsibility, international standards, GRI.

Kirish. Zamonaviy global iqtisodiyotda korporativ ijtimoiy mas’uliyat (KIM) masalasi shunchaki xayriya tadbirlari majmuidan chiqib, kompaniyalarning strategik barqarorligini ta’minlovchi fundamental omilga aylandi. Bugungi kunda kompaniyalar ijtimoiy mas’uliyatli xo‘jalik yurituvchi subyekt sifatida o‘z nufuzi va reputatsiyasini mustahkamlash orqali jahon bozorida raqobatbardoshlikka erishishga intilmoqda. KIM konsepsiyasi kompaniyalarning nafaqat qonunchilik talablarini bajarishi, balki jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik rivojlanishiga ixtiyoriy ravishda hissa qo‘shish majburiyatini ham o‘z ichiga oladi. Bu jarayon mamlakatdagi hayot darajasi va sifatining oshishiga bevosita xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jamiyat tomonidan o‘rtaga qo‘yilgan ijtimoiy muammolar o‘z vaqtida hal etilmasa, bu kompaniyalarning an’anaviy xizmat ko‘rsatuvchi sub’ekt sifatidagi samaradorligiga putur yetkazishi muqarrar. Shu nuqtai nazardan, kompaniya faoliyatining ijobiy ta’sirini oshirish, nomoliyaviy risklarni kamaytirish va steykholderlar bilan ishonchli muloqot o‘rnatish maqsadida nomoliyaviy hisobotlarni shakllantirish nazariy va amaliy jihatdan dolzarb masaladir.

Tadqiqot uslublari. Ushbu maqolada qiyosiy tahlil, evolyutsion yondashuv, nazariy interpretatsiya va sintez kabi ilmiy bilish usullaridan keng foydalanilgan bo‘lib, ular mavzu mohiyatini fundamental

darajada yoritishga xizmat qiladi. Xususan, xalqaro nomoliyaviy hisobot modellarini o‘rganish va Rossiya Federatsiyasi tajribasini qiyosiy tahlil qilish orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun tegishli xulosalar shakllantirildi. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (KIM) tushunchasining so‘nggi 70 yil ichidagi rivojlanish bosqichlari evolyutsion yondashuv asosida tadqiq etilib, uning biznes strategiyasidagi o‘rni va ahamiyati ko‘rib chiqildi. Tadqiqot doirasida E.Freeman, Y.Blagov va I.Fassin kabi taniqli iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan nazariy ta’riflar tizimlashtirildi va qiyoslandi.

Asosiy qism.Hozirgi kunda jamiyatda korporativ ijtimoiy mas’uliyatga (KIM) bo‘lgan qiziqish ortib borayotganligi sababli, kompaniyalar ijtimoiy mas’uliyatli sub’ekt sifatida obro‘-e’tibor va reputatsiyaga ega bo‘lishga intilmoqda. Kompaniyalarning ijtimoiy mas’uliyati jamiyat talablarini qondirish bilan birga, yuqori ijtimoiy standartlarni shakllantirish va mamlakatdagi hayot sifatini oshirishga hissa qo‘shishda namoyon bo‘ladi. Rivojlangan mamlakatlarda KIM biznesning ajralmas qismi hisoblanadi va mas’uliyatli biznes yuritishda katta ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston korxonalari uchun ham KIM tamoyillariga rioya qilish jahon bozorida raaqobatbardoshlikni oshirish va ishonchli hamkor sifatida tanilish uchun xizmat qiladi.

Nomoliyaviy hisobotni shakllantirishning nazariy asoslarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, KIM kompaniya tomonidan qonunchilikda belgilangan talablardan tashqari, jamiyat rivojiga ixtiyoriy ravishda hissa qo‘shish majburiyatidir. Bu mas’uliyatning iqtisodiy, huquqiy, ekologik, xayriya va axloqiy turlari kompaniyaning bozordagi imijini belgilaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, KIM tushunchasi bo‘yicha yagona ta’rif mavjud emas. Masalan, Y.V.Blagov uni steykholdarlar manfaatlarini hisobga olish nazariyasi deb ta’riflasa, professor E.Davinyon uni biznesning jamiyatga ongli ravishda naf keltirishidan manfaatdorligi deb tushuntiradi. Mualliflik yondashuviga ko‘ra, KIM — bu kompaniyaning ijobiy ta’sirini ko‘paytirish va nomoliyaviy risklarni kamaytirish maqsadida ushbu tamoyillarni biznes-jarayonlarga integratsiyalashuvidir.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, nomoliyaviy hisobot tizimi steykholdar-menejment tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Steykholdarlar — kompaniya qarorlariga ta’sir qiluvchi yoki undan ta’sir ko‘radigan barcha guruhlardir. I.Fassin yondashuviga ko‘ra, ularni bevosita manfaatdorlar (mulkdorlar, xodimlar), manfaat himoyachilari (kasaba uyushmalari) va manfaat qo‘riqchilari (davlat, OAV) guruhlariga ajratish mumkin. Har bir guruhning o‘z manfaati mavjud: davlat soliqlar va ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishni kutsa, xodimlar munosib ish haqi va barqaror ish joyini xohlaydi. Nomoliyaviy hisobot (NMH) esa ushbu barcha tomonlarga kompaniyaning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ko‘rsatkichlari haqida ma’lumot beruvchi asosiy vositadir.

Hozirgi kunda NMHni tayyorlashda GRI (Global Reporting Initiative) standarti eng keng tarqalgan bo‘lib, Top-100 kompaniyalarning 68 foizi undan foydalanadi. Shuningdek, AA1000, SA 8000 va ISO 14000 kabi standartlar ham ijtimoiy tashabbuslarni tartibga solishda muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot davomida beshta turli tartibga solish modeli qiyosiy tahlil qilinganda, ularning barchasi foydalanuvchilarni ijtimoiy va ekologik ma’lumotlar bilan ta’minlashga qaratilganligi aniqlandi. O‘zbekiston sharoitida mavjud hisobotlar asosan moliyaviy xarakterga ega bo‘lib, nomoliyaviy ma’lumotlarni e’lon qilish amaliyoti hali yetarli darajada rivojlanmagan.

Muhokama qismida shuni ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonda KIMning asosiy harakatlantiruvchi kuchi tashqi motivatsiyadir. Xalqaro bozorlarda duch kelinayotgan yangi talablar mahalliy kompaniyalarni mas’uliyatli biznes yuritishga undamoqda. Hozirgi kunda asosiy yutuqlar xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratishda ko‘rinayotgan bo‘lsa-da, kelajakda ekologik masalalar va energiya samaradorligi ustuvor vazifaga aylanishi kutilmoqda. KIMni rivojlantirishdagi asosiy to‘siq sifatida uning yuqori xarajat talab qilishi ko‘rsatiladi, biroq ijtimoiy masalalarni hal qilish uzoq muddatda innovatsiyalarni rivojlantirish va risklarni kamaytirish orqali foyda keltirishi isbotlangan. Rossiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, NMHni bosqichma-bosqich majburiy e’lon qilish (dastlab yirik davlat korxonalari, so‘ngra xususiy sektor uchun) shaffoflikni ta’minlashning samarali yo‘lidir.

Xulosa qilib aytganda, nomoliyaviy hisobot kompaniyaning barqaror rivojlanishi va jamiyat ishonchini mustahkamlashning strategik vositasi hisoblanadi. O‘zbekistonda ushbu sohani rivojlantirish uchun NMH bo‘yicha milliy konsepsiya va tegishli davlat qonunini qabul qilish zarur. Kompaniyalar KIM tamoyillarini shunchaki xayriya sifatida emas, balki biznes-strategiyaning ajralmas qismi sifatida ko‘rishi lozim. Xalqaro standartlar (GRI, ISO) asosida hisobotlarni tayyorlashni targ‘ib qilish davlat

uchun ustuvor vazifa bo‘lishi kerak, chunki bu orqali ijtimoiy va ekologik muammolarni tizimli hal etishga erishiladi. Oxir oqibat, nomoliyaviy hisobot barcha steykholdarlarning axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish orqali xo‘jalik subyektlarining barqaror o‘sishini ta’minlaydi